



MILLIY RUHNI UYG‘OTGAN MARKAZLAR: HUNARMANDCHILIK VA QADRIYAT OFISI TAJRIBASI

Niyazbekov Jamshidbek Muxsin o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining ma’naviyat va
davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Madaniyat markazlarida “Hunarmandchilik va qadriyat ofisi”larni tashkil etish tashabbusi ilgari surilgan. Bu ofislar faqatgina hunarmandchilik buyumlarini namoyish qilish uchun emas, balki milliy qadriyatlarni hayot tarziga aylantirish, an’anaviy hunarlarni o‘qitish va tadbirkorlik bilan bog‘lash maqsadida tashkil etilayotganligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Milliy madaniyat, madaniy meros, qadriyatlar, hunarmandchilik, tadbirkorlik, yoshlar va madaniyat.

Bugungi kunda jadal globallashuv jarayonlari dunyo xalqlarining madaniy qiyofasi va ma’naviy merosini saqlab qolish masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Har bir millatning ruhi uning qadriyatlarida, an’anaviy hunarmandchiligida va ma’naviy merosida namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan, madaniyat markazlarining faoliyatini faqat madaniy tadbirlar bilan cheklab qo‘ymasdan, ularni milliy ruh va amaliy hunar maskanlariga aylantirish vaqti keldi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi ham xalqimiz tilida o‘ziga xos tarzda yangradi va yangicha dunyoqarash, fikrlash sari qadam tashlashga undamoqda. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, “Bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalimiz ham kechagi xalq emas”.[1]

Shunday ekan xalqimiz uchun xizmat qilayotgan madaniyat markazlarida “Hunarmandchilik va qadriyat ofisi”larni tashkil etish tashabbusi ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. Bu ofislar orqali mahalliy ustalar, hunarmandlar va yosh ijodkorlar uchun imkoniyat yaratilib, milliy an’analarni zamonaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish ko‘zda tutiladi.

Shu bilan birga, ushbu tashabbus jamiyatda ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash, yoshlar ongida milliy iftixor va hunarga muhabbat tuyg‘usini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada madaniyat markazlarida “Hunarmandchilik va qadriyat ofisi”ni tashkil etishning mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy ahamiyati, hamda amaliy tajribalari tahlil etiladi.





Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan 839 ta madaniyat markazi mamlakatimizning ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutadi.

Ushbu markazlar joylarda xalq ijodiyotini rivojlantirish, milliy an'analarni asrab-avaylash va yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashning asosiy ustunlaridan biriga aylangan.

Mazkur madaniyat markazlarida jami 4984 nafar ijodiy xodimlar faoliyat olib borib, ular orasida 2927 nafar to'garak rahbarlari, 208 nafar badiiy rahbar, 208 nafar rejissyor, hamda 1641 nafar xonanda va sozandalar bor.[2] Ularning har biri xalq san'ati va madaniyatini rivojlantirish, joylarda madaniy hayotni boyitishda o'z hissasini qo'shmoqda.

Shuningdek, madaniyat markazlari qoshida 599 ta "Xalq havaskorlik jamoasi" va "Bolalar namunali jamoasi" unvoniga ega bo'lgan havaskorlik folklor-etnografik jamoalar, ashula va raqs ansambllari, xalq teatrlari hamda bolalar ijodiy jamoalari izchil faoliyat yuritmoqda. Ushbu jamoalar nafaqat mahalliy aholining madaniy ehtiyojini qondirmoqda, balki milliy ruh, xalqona an'analar va ijodiy izlanishlarning asosiy tashuvchisi sifatida xizmat qilmoqda.

Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga va turistlarga madaniy xizmatlar ko'rsatish darajasini oshirish, ijodiy jamoalarning respublika hududlari bo'ylab gastrol safarlarini tizimli tashkil etish, madaniyat maskanlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, iste'dodli yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish hamda sohaga xususiy sektorni keng jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-406-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra badiiy havaskorlik jamoalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ular tomonidan ko'rsatilayotgan madaniy dasturlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

- 2024 – 2027-yillarda badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar;

- 2024-yilda badiiy havaskorlik jamoalarini musiqa cholg'ulari, sahna liboslari, texnik jihoz va uskunalar to'plami bilan ta'minlash bo'yicha manzilli rejasi tasdiqlandi. Yana quyidagi ishlarni amalga oshirish belgilab qo'yildi:

- badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun talab etiladigan musiqa cholg'ulari, sahna liboslari, texnik jihoz va uskunalarining namunaviy to'plami Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

- 2025 – 2027-yillar uchun badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha yillik manzilli reja har yili 1-yanvarga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan kelishgan holda Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;





budjet hisobidan moddiy-texnika bazasi mustahkamlangan badiiy havaskorlik jamoalarining pulli tushumlarini birinchi yilda ikki baravarga, keyingi yillardan boshlab esa kamida 20 foiz miqdorida oshirib borish parametrlari ularning har biri bo'yicha Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.[3]

So'nggi uch yil mobaynida madaniyat markazlari faoliyatini mazmunan boyitish va zamon talablariga moslashtirish maqsadida qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 28 ta yangi havaskorlik teatr studiyalari, 24 ta o'quv-amaliy kurslar, 45 ta baxshichilik san'ati to'garaklari, 15 ta maqom ijrochiligi bo'yicha to'garaklar hamda 7 ta oilaviy ansambl faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bu kabi to'garak va studiyalar nafaqat mahalliy iqtidor egalarini jamlab, ularni qo'llab-quvvatlashda, balki hududlarda milliy hunarmandchilik, folklor va an'anaviy musiqaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishda ham muhim omilga aylandi.

Shu orqali madaniyat markazlari haqiqiy ma'noda xalq ruhiyatini uyg'otuvchi, qadriyat va hunar merosini asrovchi maskanlarga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda madaniyat sohasini joylarda jonlantirish, aholining ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda milliy merosni saqlash yo'lida yangi tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Shulardan biri madaniyat markazlari qoshida "Hunarmandchilik va qadriyat ofislari"ni tashkil etish g'oyasidir.

Bu ofislar faqatgina hunarmandchilik buyumlarini namoyish qilish uchun emas, balki milliy qadriyatlarni hayot tarziga aylantirish, an'anaviy hunarlarni o'qitish va tadbirkorlik bilan bog'lash maqsadida tashkil etiladi. Ularning asosiy vazifasi madaniyat, ma'naviyat va iqtisodiyot sohalarini uyg'unlashtirishdan iborat bo'ladi.

Har bir madaniyat markazida hudud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida xonalar yoki ijodiy ustaxonalar ajratiladi. Ushbu ofislar madaniyat markazi rahbarligi huzuridagi ijodiy bo'lim tarkibiga kiritiladi.

Hunarmandlar uyushmasi, "Hunarmand" uyushmasi hududiy bo'limlari va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlik memorandumlari imzolanadi.

Ofis rahbari sifatida tajribali hunarmand yoki madaniyat sohasi mutaxassisi tayinlanadi.

Ofis faoliyatining asosiy vazifalari sifatida:

Hunarmandchilik maktabi: yoshlar va xotin-qizlar uchun milliy hunar turlari hisoblanuvchi kulolchilik, zardo'zlik, toqido'zlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik kabi sohalarni o'rgatish.

Qadriyatlar kutubxonasi: milliy marosimlar, an'analar, urf-odatlar haqida ma'lumot beruvchi multimediali kutubxona yoki ekspozitsiya tashkil etish.

Ijodiy ustaxona va ko'rgazma zali: mahalliy hunarmandlar ishlarini namoyish qilish, sotuv yarmarkalari va ko'rgazmalar o'tkazish.

Tarbiyaviy-ma'rifiy dasturlar: yoshlar va bolalar uchun "Qadriyat sabog'i", "Hunar merosi", "Bobolar izidan" kabi ma'rifiy kurslar tashkil etish.



Ayollar hunar markazi: xotin-qizlarni milliy hunar orqali band qilish va daromadli faoliyatga yo'naltirish.

Ofislarni tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asos yaratish bo'yicha Madaniyat vazirligi huzurida "Hunarmandchilik va qadriyat ofislari"ni tashkil etish bo'yicha yo'riqnoma va nizom ishlab chiqiladi. Har bir hududda madaniyat boshqarmalari tomonidan me'yoriy hujjat va hisobot tizimi yo'lga qo'yiladi.

Ofislarni moliyalashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha mahalliy byudjet va homiylik mablag'lari hisobidan ustaxonalar va ekspozitsiya zallari jihozlanadi. Hunarmandlar uyushmasi, savdo palatalari va xususiy sektor bilan davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalar amalga oshiriladi.

Kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida madaniyat markazlari xodimlari uchun hunarmandchilik va qadriyatshunoslik bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etiladi. Tajribali ustalar va folklor etnograflar ta'lim jarayoniga jalb etiladi.

Ofislar faoliyatida axborot va raqamli platforma yaratish bo'yicha har bir hududdagi hunarmandlar va qadriyat loyihalari haqida ma'lumot beruvchi onlayn katalog ishlab chiqiladi. Ofis faoliyatining natijalari OAV va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilinadi.

Madaniyat markazlarida "Hunarmandchilik va qadriyat ofislari"ni tashkil etish — bu shunchaki navbatdagi tashkiliy loyiha emas, balki milliy ruhiyatni uyg'otishga qaratilgan ma'naviy harakatdir. Zero, xalqning madaniyati — uning qiyofasi, hunari esa ruhiy boyligi hisoblanadi.

Shu ma'noda, bunday ofislar aholi, ayniqsa yoshlar uchun milliy o'zlikni his etish, an'anaviy hunar va qadriyatlar orqali shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Bu ofislar aholiga, eng avvalo, uchta eng muhim ijobiy natijalarga olib keladi:

Bilim va tajriba – hunarmandchilik, milliy urf-odatlar va qadriyatlar haqida amaliyotga tayangan o'quv dasturlari orqali yangi ko'nikmalar hosil bo'ladi.

Ruhiy-ma'naviy tarbiya – qadriyatlar ofisi orqali insonning qalbida milliy iftixor, vatanparvarlik va o'zlikni anglash hissi kuchayadi. Bu maskanlar yoshlar ongida "o'zligini anglagan inson jamiyatni anglaydi" degan fikrni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy faollik va iqtisodiy imkoniyat – hunarmandchilik faqat ma'naviy emas, balki amaliy samara ham beradi: mahalliy ish o'rinlari yaratiladi, oilaviy bizneslar shakllanadi, milliy mahsulotlarga talab ortib boradi.

Natijada madaniyat markazlari aholining faqat dam olish joyiga emas, balki ijod, mehnat va ma'naviyat uyg'onishi maskaniga aylanadi.

Shunday ekan, "Hunarmandchilik va qadriyat ofisi" tashabbusi jamiyatda yangi madaniy muhitni shakllantiradi — u yerda hunar bilan qadriyat, an'ana bilan zamonaviyat, inson bilan millat ruhi birlashadi. Bu esa ma'naviy barqarorlik va milliy tiklanishning eng kuchli poydevoridir.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Xolmo‘minov “Madaniyat va san’at sohasi faoliyatini boshqarish”. Darslik - T.: “Donishmand ziyosi” nashryoti. 2025.-450 b
2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi arxiv hujjatlari
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr “Aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-406-sonli qarori. www.lex.uz

